

ZAMONAVIY YOSHLAR PSIXOLOGIYASI VA XARAKTERISTIKASI.

Tursunboyeva Mubinabonu Xurshidbekovna
Andijon davlat pedagogika instituti 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: Zamonaviy yoshlar psixologiyasi va xarakteristikasi, bugungi yoshdagi boshqa shaxslarga o’xshash bo’lishi mumkin, ammo ularning dunyoviy tajribalari va muhitlari yoshlarning shaxsiy xarakter va psixologiyalari o’zlarining o’tmishdoshlaridan tubdan farq qilmoqda. Ushbu maqolada texnologiyalar asri yoshlari hamda ularning o’tmishdoshlari haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: xarakteristika, globallashuv, madaniy munosabatlar, eksperimental biologiya, oily nerv, diferensial psixologiya, yosh davrlar

Yosh davr psixologiyasini o’rganish ham amaliy ham nazariy ahamiyatga ega. U ham boshqa fanlar kabi rivojlanadi sayqallanadi. Yosh davrlar psixologiyasi fanini o’rganishda eksperimental biologiya va genetika, meditsina, sotsologiya kabi fanlarning xizmatlari katta. Yosh davri va xarakteristikasi differensial psixologiya bilan uzviy bog’liq u oila nerv faoliyati qonunlariga differensial psixofiziologiya qonuniyatlariga, psixologlar to’plagan materiallarga tayanib inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o’zgarishi yuzasida baxs yuritadi. Ijtimoiy turmushning barcha jabxalaridagi amaliy masalalarni hal qilishda faol ishtirok etadi. Inson o’zi yashab turgan davrni, moddiy turmushini aks ettiradi, ijtimoiy-siyosiy muhit ta’siri ostida bilimlarini o’zlashtirib boradi, ijtimoiylashadi tarixan o’zgaradi. Yosh davr yani o’smirlik davrida uning xis tuyg’ulari, xarakteri, qobiliyati, tafakkuri, extiyojlari, uni faolligi davat qiluvchi harakat motivlari istaklari, tilaklari hoxishlari pozitsiyasi ham ham asta-sekin o’zgaradi. Yillar o’tkani sarin insonlarning ongi dunyo qarashi ham ulardan oldin yashagan ajdodlaridan tubdan farq qiladi.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarimiz tafakkuri ularning dunyo qarashi hamda psixologiyasi ham o’zgarib bormoqda. Ko’p ota-onalar o’zlarining farzandlari tarbiyasi, o’zini tutish xarakteristikasi o’zgarganliklaridan shikoyat qilishmoqda. Nima deb o’ylaysiz hozirgi zamonaviy yoshlarni psixologiyasi o’tmishdoshlarinikidan tubdan o’zgarganmi? Tan olib aytish kerakki yoshlarning psixologiyasi anchagina osish bilan bir qatorda jadalda rivojlanib ham ketmoqda. Ota-onalarning kichik yoshdagi farzandlaridan ham ko’proq narsani talab qilishi ularning bosh vaqtlarini ham turli mashg’ulotlar yoki til o’rganish bilan band qilishlari holatlari aslida yoshlar psixologiyasiga ta’sir qilmoqda ya’ni bolaning bolaligi yo’qolishi undan ko’p narsalarni umid qilish holatalari hozirgi kunda ota onalarning bollalariga qo’yilgan asosiy talablaridan biri hisoblanmoqda. Darhaqiqat, ota-onalar ham o’z farzandlarini yetuk shaxs sifatida tarbiyalashni o’z oldilariga maqsad qilib qo’yishgan ammo bu qanchalik to’g’ri? Olimlarning fikricha 21 asr yoshlari o’zlarining o’tmishdoshlariga nisbatan tezroq yetuklikka yani o’smirlik davrining qisqa o’tishi o’spirinlik yoshi davriga tez fursatda o’tish holatlari ko’payib ketayotkanini aytishmoqda. Ularning tajribalariga ko’ra 12-13 yoshlik bolaning yuz tuzilishi, fikrlashi, kattalar bilan bo’lgan muloqotda o’zlarining shaxsiy fikrlarini o’smir yoshlardek ifoda etishayotganini ta’kidlashmoqda. Buning asosiy sabablarini ko’pchilik esa turli xil gajet hamda texnologiyalar deb taxmin qilishlari tabiiy hol. Yoshlar orasida axborot texnologiyalarini omallashishi natijasida ularning tashqi dunyo bilan uzilish holatlariga olib kelmoqda. Y oshlar kundalik vaqtining 3 dan 1 qismini internetda o’tkazishlar va vaqtlarining bundanda ko’proq qismi virtual hayotda o’tkazayotkani balki hozir tabiiy holdir ammo, buning salbiy holatlari bevosita o’smir yoshlarga o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Ba’zi yoshlarda tengdoshlar bilan kamroq suxbat qurishi, jamiyatdan uzilib vertual olamdagi robot do’stini ustun qo’yishi holatlari kabi salbiy oqibatlarni kuzatmoqdamiz. Yoshlar psixologiyasining axborotning ta’siri quydagilarda ko’rinmoqda:

- 1-7 yoshlik bolalarning nutqida tutilishlar
- Ota onalar bilan bo’lgan munosabatda qo’pollik yoki o’zlarini tezroq ota-onalar qamrovidan chiqish mustaqill hayot kechirish kabi holatlar
- Do’stlar bilan muloqotning izchilligi yoki vertual hayotni ustun qo’yish
- Ularni yuz tuzilishi yoki erta yetilish

Zamonaviy yoshlar psixologiyasi va xarakteristikasi boshqa o’tmishdoshlarnikiga o’xshash bo’lishi mumkin, lekin ularning shaxsiy xususiyatlari va tajribalari ularni ajratib turadi. Zamonaviy

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

yoshlar odatda tezroq o’rganishga qodir, innovatsion va ijodiy bo’lishga harkat qilishadi. Ularning o’zlari ozod his qilish, o’zgarishlarga ochiq bo’lish maqsadlarini qo’llab-quvvatlashga qiziqishadi.

Zamonaviy yoshlarning psixologiyasida stress kabi yangi termin paydo bo’lishi bilan ularni maqsadlariga bo’lgan intilish holatlari pasayishi kabi muomolari yoshlar orasida ko’payib bormoqda lekin, ularni shaxsiy xususiyatlari va tajribalari ularni o’tmishdoshlaridan faqr qiladi. Bu esa yoshlar psixologik xususiyatlari ularni shuxrat, muvaffaqiyat va maqsadlarini qo’llab quvvatlashga yo’naltiradi.

Yoshlar xarakteristikasi, ta’lim tarbiya sohasida faoliyat ko’rsatuvchi shaxslar uchun juda muhimdir, chunki bu ma’lumotlar ularga qanday yordam ko’rsatish kerakligini aniqlashda asosiy tamoyil hisoblanadi. Yoshlar xarakteristikasi shaxsiy ravishda har bir yoshga mos ta’lim va ko’nikmani ko’rsatishning muhim omilidir.

Yosh davrlar psixologiyasi fanining soxasi 19 asrda vujudga kelgan lekin, dastlabki ildizi Yunoniston madaniyatiga borib taqaladi. Uning predmeti va qonuniyatlari to’g’risidagi jahon psixologiyasi olamida turli qarashlar nazariyalar mavjud. Ularning juda keng tarqalgani biogenetik (V.shtern), sotsogenetika (K.Levin), bixevoristik (E.Torndayk) psixoanalitik (Z.Freyd) nazariyalaridir.

Foydaniilgan adabiyotlar

1. Sh.A Do’stmuhammedova, X.A.Tilashayxova, G.baykunosova, G.Zyaviddinova, Umumiy pedagogika, (2-kitob), (yosh davrlar va pedagogic psixologiya) T:-Toshkent-2020
2. P.I.Ivanov. M.E.Zufarova, Umumiy psixologiya:-Toshkent-2008
3. Davaetshin M.G, To’ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. Toshkent-2010
V.Karimova. Toshkent-2010